

**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligida budget mablag'laridan
foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlarning 2025-yildagi
ijrosi bo'yicha Budget dasturlarini shakllantirish, monitoring qilish
va ularning ijrosini muvofiqlashtirish bo'limi tomonidan taqdim
etilgan hisobot tahlili va natijalarini baholash bo'yicha
MA'LUMOTNOMA**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 25.12.2024-yildagi PQ-455-son qarori ijrosini taminlash maqsadida vazirlikka budjetdan ajratilgan mablag'larning samarali sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to'liq bajarilishini ta'minlash yuzasidan vazirlikning 16.01.2025-yildagi 15-son buyrug'i qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.12.2024-yildagi PQ-455-son qarori 7-ilovasi 2-bandi bilan **Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-2027-yillar uchun budget mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlari tasdiqlangan.**

Mazkur Qaror bilan 2025-yil uchun vazirlikka **6 ta** Rivojlantirish dasturlari va **32 ta** maqsadli indikatorlarining prognoz ko'rsatkichlari belgilab berilgan.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yilgi **Strategik maqsadi**: Oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash, ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

2025-yil uchun aniqlangan rejaviy ko'rsatkichida 6 trillion 85 milliard 700 mln.so'm mablag' ajratilgan.

Bajarilishi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va uning tizimidagi muassasalar uchun "UzAsbo" 2 dasturi orqali tahlil qilinganda amalga oshirilgan jami kassa xarajatlari miqdori 2025-yilda respublika budjetidan **5 trillion 900 milliard 300 mln.so'mni** tashkil etgan. Yillik ko'rsatkichga nisbatan **97,0 foizni** tashkil etadi.

1.1. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va uning tasarrufidagi muassasalar joriy xarajatlari uchun 2025-yilga 5 trillion 233 milliard 700 million so'm mablag' ajratilgan.

Bajarilishi

2025-yil 31-dekabr holatiga "UzAsbo" 2 dasturi orqali tahlil qilinganda amalga oshirilgan jami joriy kassa xarajatlari miqdori **5 trillion 56 milliard 100 mln. so'mni** tashkil etgan. Yillik ko'rsatkichga nisbatan **96,6 foizni** tashkil etadi.

Yakuniy natija ko'rsatkichi

2025-yilda Yoshlarni Oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi (*jami bitiruvchilar soniga nisbatan*) **44,0 foiz** etib belgilangan.

Bajarilishi

2025-yil 31-dekabr holatiga Yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish rejasi **44,0 foizga**, ya'ni belgilangan reja to'liq bajarilgan.

2025-yilda Xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar reytingida **birinchi 1 000 ta o'rindagi** oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kirgan respublikadagi oliy ta'lim muassasalari sonini **1 taga orttirish** belgilangan.

Bajarilishi

2025-yil 31-dekabr holatiga nufuzli **xalqaro reyting** tashkilotining top 1000 talik ro'yxatiga **3 ta**, xususan **“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti, O'zbekiston milliy universiteti va Toshkent davlat texnika universiteti kirgan.** Belgilangan reja to'liq bajarilgan.

2025-yilda Ta'lim dasturlari xalqaro akkreditatsiyadan o'tadigan oliy ta'lim muassasalari soni **5 ta** etib belgilangan.

Bajarilishi

2025-yilda 5 ta oliy ta'lim tashkilotining jami **12 ta** (*TDPU 4 ta, BuxDTI 3 ta, TATU 2 ta, TTA Urganch filiali 1 ta, SMU 2 ta*) ta'lim dasturi xalqaro **akkreditatsiyadan o'tkazilib**, tegishli sertifikatlar olingan hamda yillik reja ijrosi ta'minlangan.

2025-yilda oliy ta'lim muassasalari tasarrufidagi akademik litseylarning bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan **qamrov darajasini 93,0 foizga** yetkazish belgilangan.

Bajarilishi

2025-yil 31-dekabr holatiga Oliy ta'lim muassasalari tasarrufidagi akademik litseylarning bitiruvchilari soni **12 546 nafarni** tashkil etdi. Ushbu bitiruvchilardan **11 668 nafari, 93,0 foizi** oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirgan va yillik reja ijrosi to'liq ta'minlangan.

2025-yilda umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilarini kasbiy ta'lim tashkilotlariga **qabul qilinish darajasi** (*jami bitiruvchilar soniga nisbatan*) **23,0 foiz** etib belgilangan.

Bajarilishi

2025-yil 31-dekabr holatiga ko'ra Kasbiy ta'lim tashkilotlariga 2025/2026-o'quv yilida jami **173 627 nafar** o'quvchi qabul qilingan. Ushbu ko'rsatkich umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilarini **29,0 foizini** tashkil etadi.

2025-yilda o'rta maxsus va kasbiy ta'lim muassasalarining malaka toifasiga ega bo'lgan pedagog kadrlari ulushi (*jami pedagoglar soniga nisbatan*) **33,0 foiz** etib belgilangan.

Bajarilishi

2025-yil 31-dekabr holatiga o'rta maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan **28 035 nafar** pedagog kadrlardan **10 023 nafariga** malaka toifasi berildi va malaka toifasiga ega pedagog kadrlar ulushi **35,8 foizga yetkazilgan.**

2025-yilda oliy ta'limga kiradigan o'quvchilar soni **219 025 nafar** etib belgilangan.

Bajarilishi

2025-yil 31-dekabr holatiga oliy ta'limga kirgan o'quvchilar soni 219 210 nafarni tashkil etgan va yillik reja 100,1 foizga bajarilgan.

2025-yilda Kasbiy ta'lim tashkilotlariga kirgan umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari soni 140 901 nafar etib belgilangan.

Bajarilishi

2025-yil 31-dekabr holatiga ko'ra Kasbiy ta'lim tashkilotlariga 2025/2026-o'quv yili uchun jami 173 627 nafar o'quvchi qabul qilingan va rejaviy ko'rsatkich 123,2 foizga bajarilgan.

2025-yilda O'rta maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlarining attestatsiyaga jalb etiladigan o'qituvchilar soni 8000 nafar etib belgilangan.

Bajarilishi

2025-yil 31-dekabr holatiga o'rta maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlarining 11 495 nafar o'qituvchilari attestatsiyaga jalb etilgan va ushbu ko'rsatkich 143,7 foizga bajarilgan.

2025-yilda Kasbiy ta'lim tashkilotlarining attestatsiyaga jalb etiladigan ishlab chiqarish ta'limi ustalari soni 3 000 nafar etib belgilangan.

Bajarilishi

2025-yil 31-dekabr holatiga ko'ra kasbiy ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan 6 531 nafar ishlab chiqarish ta'limi ustalaridan 2 517 nafari daraja olish bo'yicha **pedagog.edu.uz** platformasi orqali ro'yxatdan o'tgan hamda rejaviy ko'rsatkich 83,9 foizga bajarilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrdagi "Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-316-sonli qaroriga muvofiq ishlab chiqarish ta'limi ustalariga **kasbiy sertifikat** berish amaliyoti **joriy etildi**.

2025-yilda Kasb-hunar maktablariga kiradigan o'quvchilar soni 143 901 nafar etib belgilangan.

Bajarilishi

2025-yil 31-dekabr holatiga ko'ra Kasbiy ta'lim tashkilotlariga 2025/2026-o'quv yili uchun jami 173 627 nafar o'quvchi qabul qilindi va reja 120,7 foizga bajarildi.

2025-yilda ilmiy darajaga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar soni 16 000 nafar etib belgilangan.

Bajarilishi

2025-yil 31-dekabr holatiga Ilmiy darajaga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar soni 18 998 nafarni tashkil etgan va ijrosi 118,7 foizga bajarilgan.

2025-yilda tarjima qilinadigan va o'quv jarayoniga tatbiq etiladigan xorijiy adabiyotlar soni 53 dona etib belgilangan.

Bajarilishi

2025-yil 31-dekabr holatiga tarjima qilingan va ta'lim muassasalariga yetkazilgan xorijiy adabiyotlar soni 65 donani, 122,6 foizni tashkil etgan.

2.2. 2025-yilda Oliy ta'lim muassasasida magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlarini qaytarish shartisiz qoplash xarajatlari **dasturiga asosan 123,0 mlrd so'm** ajratilgan.

Bajarilishi

2025-yil 31-dekabr holatiga oliy ta'lim muassasalariga magistratura bosqichiga o'qishga qabul qilingan xotin-qizlarning kontrakt to'lovlarini qaytarish shartisiz qoplash xarajatlari dasturi asosida **123,0 mlrd so'm yoki rejaga nisbatan 100 foiz miqdorda to'lov amalga oshirilgan.**

2025-yilda Davlat oliy ta'lim muassasalari magistraturasida to'lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan xotin-qizlarning ulushi (*jami magistrlar soniga nisbatan*) **27,1 foiz** etib belgilangan.

Bajarilishi

2025-yil 31-dekabr holatiga davlat oliy ta'lim muassasalari magistraturasida to'lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan xotin-qizlarning ulushi jami magistrlar soniga nisbatan **27,9 foizni** tashkil etgan va ijrosi **102,9 foizga** ta'minlangan.

2025-yilda Davlat oliy ta'lim muassasalari magistraturasiga talabalikka qabul qilinib, to'lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan xotin-qizlar soni **6 619 nafar** etib belgilangan.

Bajarilishi

2025-yil 31-dekabr holatiga Davlat oliy ta'lim muassasalari magistraturasiga talabalikka qabul qilinib, to'lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan xotin-qizlar soni **9 968 nafarni** tashkil etgan va ijrosi **150,6 foizga** bajarilgan.

2025-yilda Davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida ta'lim olayotgan jami talabalar soni **24 425 nafar** etib belgilangan.

Bajarilishi

2025-yil 31-dekabr holatiga Davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida ta'lim olayotgan jami talabalar soni **35 724 nafarni** tashkil etgan va reja **146,3 foizga** bajarilgan.

2.3. 2025-yilda Davlat-xususiy sheriklik asosida talabalar turar joyini barpo etish bo'yicha loyihalar uchun subsidiyalar dasturiga **286,4 mlrd. so'm** ajratilgan.

Bajarilishi

2025-yil 31-dekabr holatiga Davlat-xususiy sheriklik asosida talabalar turar joyini barpo etish bo'yicha loyihalar uchun subsidiya mablag'laridan **276,2 mlrd so'm** sarflangan, yillik rejaga nisbatan **96,4 foizga** bajarilgan.

2025-yilda talabalarni turar joyi bilan qamrab olish darajasi (*jami ehtiyojga nisbatan*) **52,2 foiz** etib belgilangan.

Bajarilishi

2025-yil 31-dekabr holatiga talabalarni turar joyi bilan qamrab olish darajasi jami ehtiyojga nisbatan **57,0 foizga** bajarilgan.

2025-yilda Respublika bo'yicha talabalar turar joylari sig'imi **145 241 o'rin** etib belgilangan.

Bajarilishi

2025-yil 31-dekabr holatiga Respublika bo'yicha talabalar turar joylari sig'imi **159 185 o'rinni** tashkil etgan va reja **109,6 foizga** bajarilgan.

2025-yilda Respublika bo'yicha talabalar turar joylariga bo'lgan ehtiyoj **278 100 o'rin** etib belgilangan.

Bajarilishi

2025-yil 31-dekabr holatiga Respublika bo'yicha talabalar turar joylariga ehtiyoj **279 270 o'rinni** yoki yillik rejaga nisbatan **100,4 foizni** tashkil etadi.

2.4. 2025-yilda Davlat-xususiy sheriklik asosida qurilgan talabalar turar joyida yashagan talabalar uchun davlat sherigiga to'lanadigan subsidiyalar dasturiga, aniqlashtirilgan rejaga ko'ra **39,7 mlrd. so'm** ajratilgan.

Bajarilishi

2025-yil 31-dekabr holatiga mazkur sarf-xarajatlar uchun 2025-yilda **39,6 mlrd. so'm** mablag' yo'naltirilgan va yillik rejaga nisbatan **99,8 foizni** tashkil etadi.

2025-yilda Davlat-xususiy sheriklik asosida qurilgan, ishga tushirilgan va subsidiya ajratilayotgan talabalar turar joylari sig'imi **12 215 o'rin** etib belgilangan.

Bajarilishi

2025-yil 31-dekabr holatiga Davlat-xususiy sheriklik asosida qurilgan, ishga tushiriladigan va subsidiya ajratiladigan talabalar turar joylari sig'imi **11 084 o'rinni** tashkil etgan va yillik rejaga nisbatan **90,7 foizni** tashkil etadi.

Davlat-xususiy sheriklik asosida qurilayotgan 2025-yildan 2026-yilga o'tgan **43 ta loyiha** bo'yicha 2026-yilda **27 397 o'rinli** talabalar turar joylari ishga tushiriladi.

5. 2025-yilda "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga ularning amaliyotni o'tashi davrida bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdorida beriladigan har oylik subsidiyalar ajratish **dasturi** asosida aniqlangan rejaga ko'ra **2,0 mlrd. so'm** ajratilgan.

Bajarilishi

2025-yil 31-dekabr holatiga "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga ularning amaliyotni o'tashi davrida bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdorida beriladigan har oylik subsidiyalardan **178,5 mln so'm** yoki **8,9 foizi to'langan.**

2025-yilda "Yoshlar daftari"ga kiritilgan subsidiya ajratiladigan o'quvchilar ulushi (*jami o'quvchilar soniga nisbatan*) **0,11 foiz** miqdorida etib belgilangan.

Bajarilishi

2025-yil 31-dekabr holatiga "Yoshlar daftari"ga kiritilgan subsidiya ajratiladigan o'quvchilar ulushi (*jami o'quvchilar soniga nisbatan*) **0,11 foizni** tashkil etgan.

2025-yilda "Yoshlar daftari"ga kiritilgan subsidiya ajratiladigan o'quvchilar soni aniqlangan rejaga ko'ra **440 nafar** etib belgilangan.

Bajarilishi

2025-yil 31-dekabr holatiga "Yoshlar daftari"ga kiritilgan subsidiya ajratiladigan o'quvchilar soni **492 nafarni** tashkil etgan.

2025-yilda Kasbiy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar soni **384 255 nafar** etib belgilangan.

Bajarilishi

2025-yil 31-dekabr holatiga Kasbiy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar soni 437 819 nafarni tashkil etgan.

2.6. 2025-yilda Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash **dasturi** bo'yicha aniqlangan reja bo'yicha 558,1 mlrd. so'm mablag' ajratilgan.

Bajarilishi

2025-yil 31-dekabr holatiga Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash **dasturi** bo'yicha kassa xarajatlari 558 mlrd. 100 mln.so'mni yoki 100,0 foizni tashkil etgan.

2025-yilda Tanlovga tayyorlash dasturidan muvaffaqiyatli o'tgan startap loyihalarini moliyalashtirish natijasida yaratilgan mahsulot va xizmatlar soni 36 ta etib belgilangan.

Bajarilishi

2025-yil 31-dekabr holatiga Tanlovga tayyorlash dasturidan muvaffaqiyatli o'tgan startap loyihalarini moliyalashtirish natijasida yaratilgan mahsulot va ish-xizmatlar soni 36 ta yoki 100,0 foizni tashkil etgan.

2025-yilda Yangi ishlanmalarni tijoratlashtirish natijasida yaratiladigan mahsulot va xizmatlar turlari soni 150 ta etib belgilangan.

Bajarilishi

2025-yil 31-dekabr holatiga Yangi ishlanmalarni tijoratlashtirish natijasida yaratiladigan mahsulot va xizmatlar turlari soni 256 taga yetkazilgan.

2025-yilda Davlat ilmiy dasturlari doirasida bajarilgan ilmiy loyihalar sonida muhandislik yo'nalishidagi tadqiqotlar soni 14 foiz etib belgilangan.

Bajarilishi

2025-yil 31-dekabr holatiga Davlat ilmiy dasturlari doirasida bajarilgan ilmiy loyihalar sonida muhandislik yo'nalishidagi tadqiqotlar soni 19,6 foizni tashkil etgan.

2025-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda joylashgan ilmiy tadqiqotlar laboratoriyalarini zamonaviy ilmiy-laboratoriya asbob-uskunalar bilan ta'minlash ulushi (*jami xarid qilinadigan uskunalar soniga nisbatan*) 25 foiz etib belgilangan.

Bajarilishi

2025-yil 31-dekabr holatiga Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda joylashgan ilmiy tadqiqotlar laboratoriyalarini zamonaviy ilmiy-laboratoriya asbob-uskunalar bilan ta'minlash ulushi (*jami xarid qilinadigan uskunalar soniga nisbatan*) 59,0 foizni tashkil etgan.

2025-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda joylashgan oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tashkilotlarda faoliyat yuritayotgan yosh olimlarni ilmiy stajirovkalarga yuborish ulushi (*jami tashkil etiladigan maqsadli tanlov natijalariga nisbatan*) 10 foiz etib belgilangan.

Bajarilishi

2025-yil 31-dekabr holatiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda joylashgan oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy tashkilotlarda faoliyat yuritayotgan yosh olimlarni ilmiy stajirovkalarga yuborish ulushi (*jami tashkil etilgan maqsadli tanlov natijalariga nisbatan*) 43,0 foizga bajarilgan.

2025-yilda Tanlovga tayyorlash dasturlaridan (*inkubatsiya/akseleratsiya*) o‘tkazilgan startap loyihalar soni 60 ta etib belgilangan.

Bajarilishi

2025-yil 31-dekabr holatiga Tanlovga tayyorlash dasturlaridan (*inkubatsiya-akseleratsiya*) o‘tkazilgan startap loyihalar soni 60 ta yoki 100,0 foizni tashkil etgan.

2025-yilda Yangi ishlanmalarni tijoratlashtirish maqsadida bajarilayotgan loyihalar soni 270 ta etib belgilangan.

Bajarilishi

2025-yil 31-dekabr holatiga Yangi ishlanmalarni tijoratlashtirish maqsadida bajarilayotgan loyihalar soni 314 ta yoki 116,3 foizni tashkil etadi.

2025-yilda Davlat ilmiy dasturlari doirasida muhandislik yo‘nalishidagi bajariladigan ilmiy loyihalar soni 43 ta etib belgilangan.

Bajarilishi

2025-yil 31-dekabr holatiga Davlat ilmiy dasturlari doirasida muhandislik yo‘nalishidagi bajariladigan ilmiy loyihalar soni 62 ta yoki 144,2 foizni tashkil etgan.

2025-yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda joylashgan ilmiy tashkilotlar ilmiy laboratoriyalari uchun xarid qilinadigan uskunalar soni 30 ta etib belgilangan.

2025-yil 31-dekabr holatiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda joylashgan ilmiy tashkilotlar ilmiy laboratoriyalari uchun xarid qilingan uskunalar soni 48 ta yoki 160,0 foizni tashkil etgan.

**2025-yilda maqsadli indikatorlarni bajarilishi bo‘yicha hisobotni tahlil qilish va natijalarini baholash yuzasidan
xulosa**

Budjet dasturlarini shakllantirish, monitoring qilish va ularning ijrosini muvofiqlashtirish bo‘limi tomonidan **budjet mablag‘laridan foydalanish bilan bog‘liq maqsadli indikatorlarning 2025-yilda bajarilishi bo‘yicha taqdim etilgan hisobot** Ichki audit boshqarmasi tomonidan o‘rganib chiqildi.

Taqdim etilgan hisobot ko‘rsatkichlari maqsadli indikatorlarning rejaviy ko‘rsatkichlari bilan taqqoslangan holda vazirlikning 2024-yil 2-fevraldagi 28-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan **Baholash tartibi asosida tahlil qilindi va quyidagi tartibda baholandi:**

maqsadli indikatorlar ijrosi bo‘yicha taqdim etilgan hisobot tasdiqlangan ko‘rsatkichlar asosida tayyorlangan hamda ularning ijrosida, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga zid holatlar aniqlanmadi;

mas‘ul bo‘linmalar tomonidan maqsadli indikatorlarning bajarilishi bo‘yicha taqdim etilgan hisobotlarning haqqoniyligi va tegishli tashkilotlardan olingan

birlamchi ma'lumotlar asosida shakllantirilganligi uchun mas'uliyat Budget dasturlarini shakllantirish, monitoring qilish va ularning ijrosini muvofiqlashtirish bo'limiga yuklatiladi;

Maqsadli indikatorlarning 2025-yil uchun tasdiqlangan **2.5. "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga ularning amaliyotni o'tashi davrida bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdorida har oyda ajratiladigan subsidiyalar to'lovi dasturi uchun 2,0 mlrd so'm mablag' ajratilgan.**

Amaliyotni o'tash davrida beriladigan har oylik subsidiyalarni ajratish bo'yicha hisobotda "Yoshlar daftari"ga kiritilgan o'quvchilar soni 492 nafar bo'lib, ularning 227 nafari ariza bilan murojaat qilgan va hozirda ularning arizalari tuman (shahar) moliya bo'limlari tomonidan ko'rib chiqish jarayonida, shuningdek, **265 nafar o'quvchiga 178 mln. 500 ming so'm mablag' to'lab berilgan.**

Mazkur kasbiy ta'lim muassasalarida o'quvchilar amaliyotlari o'qitilgan nazariy bilimlar yakunida o'tkazilishi sababli **"Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga ularning amaliyotni o'tashi davrida beriladigan har oylik subsidiyalar to'lovi joriy yilda amalga oshirilmaslik ehtimoli mavjud bo'lgan. Natijada ushbu indikatorning bajarilmaslik xavfi saqlanib qolgan.**

Vazirlikga 2025-yil uchun Kasbiy ta'lim yo'nlishida tasdiqlangan maqsadli indikatorlar bajarilishida aniqlangan xavflarni bartaraf etish va ijrosini ta'minlash maqsadida Budget dasturlarini shakllantirish, monitoring qilish va ularning ijrosini muvofiqlashtirish bo'limi **Kasbiy ta'lim agentligi mas'ullari bilan birgalikda quyidagilar:**

-maqsadli indikatorlarning 2025-yil uchun tasdiqlangan **2.5. "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga ularning amaliyotni o'tashi davrida bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdorida har oyda ajratiladigan subsidiyalar dasturi" ijrosidan kelib chiqib, 2026-yilda kutilayotgan to'lovlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligida aniqlik kiritish;**

Xuddi shunday bajarilmaslik xavflari boshqa indikatorlar ijrosida ham yuzaga kelishi mumkinligini e'tiborga olib, **barcha mas'ul bo'linmalar** tegishli indikatorlarni **bajarilmaslik xavflarini qayta ko'rib chiqish;**

Maqsadli indikatorlarning bajarilishi haqqoniyligini hamda o'z vaqtida bajarilishini ta'minlashga qaratilgan ishlarni **tizimli tashkil etish tavsiya etiladi.**

Ichki audit boshqarmasi tomonidan mas'ul bo'linmalarning Indikatorlar ijrosiga doir taqdim etgan davriy ma'lumotlari haqqoniyligini joylarda o'rganib, natijalari yuzasidan **rahbariyatga axborot, tegishli bo'linma va tizim tashkilotlariga taqdimnomalar kiritilishi ma'lum qilinadi.**